

MENING KELAJAKDAGI KASBIM

Aytmatova Gulxan Saparmamet gizi

Ajiniyoz nomidagi NMPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada o'z kasbining mohir ustasi, o'qituvchilik kasbining mutaxasisi bo'lish hamda o'qituvchilik kasbi haqida buyuk allomalarimizning aytgan jumalari haqida fikir yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, o'quvchi, kasb, boshlang'ich sinf, mutaxassis, ta'lim, tarbiya, sabr-toqat, psixolog.*

Zamonaviy dunyoda juda muhim va qiziqarli bo'lgan bir nechta kasblar mavjud.

Muayyan sohada birinchi darajali mutaxasislarni tayorlaydigan oliy ta'lim muassasalari tobora ko'paymoqda. Har bir insonning o'z orzulari va qiziqishlari bor. Shuningdek, har kim o'z ixtisosligi, qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib kasb tanlaydilar. Masalan, men boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lmoqchiman. Eng qadimiy kasblardan biri bu o'qituvchilikdir. Hozirda men Nukus davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim fakultetida tahsil olib kelmoqdaman. Bu yil ikkinchi kursni tamomladim. Bu kasbni tanlashimga asosiy turtki bo'lgan inson bu onamdir. Onam ham maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqdalar. U o'quvchilariga mehribonlikni va qattiqqo'llikni barobar ushlay oladigan va talabchan o'qituvchidir. Men ham shu kasbni tanlab, kelajakda o'qituvchi bo'lishga qaror qildim. Birinchi sentyabrda navbatga turib, maktab haqida umuman hech narsa bilmaydigan bolalarining qo'lidan tutib, hayrat va havas bilan sizga boqqan chaq nab turgan ko'zlarga boqish juda zo'r, hayajonli. Sizning ishingiz yordamida kichik bolalar shaxsga aylanayotganini va to'rtinchi sinf oxiriga kelib ularning bilim yuki qanday to'planishini tushunish qanchalik yoqimli. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar uchun katta va qiziqarli dunyoni ochadi. Bolalar maktabda qancha yangi narsalarni o'rganadilar: o'simliklar, hayvonlar, narsalar, tushunchalar haqida, o'qish, yozish va to'g'ri hisoblashni o'rganadilar. O'qituvchi bolalarni yoqtirmaydigan odam bo'lishi mumkin emas. Sevgi, mehribonlik va sabr-toqat kelajakdagi kasbingizda yo'qori natija ko'rsatishga yordam beradi. Bolalarning xulq-atvori har xil bo'ladi. O'qituvchi har doim, har bir bolaga yondashuvni topa bilishi kerak. Yana o'qituvchi yaxshi psixolog bo'lishi kerak. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari. Sababi yangi mavzu tushuntirganda ham sabr-toqat va qunt bilan o'quvchilarga yetkazib berishi kerakdir. Shuning uchun ham o'quvchi bolalarning yaxshilanishiga, rivojlanishiga, yaxshi o'qishiga yordam berishi kerak. Haqiqiy o'qituvchi bo'lish, har tomonlama bilim va ko'nikmaga ega bo'lish, o'z ustingizda tinmay ishlash, bilim va malakangizni oshirib borshingizdadir. Bu ish qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. O'qituvchi yosh o'quvchilar uchun jonli va aniq

namunadir, shuning uchun ham o'qituvchi har doim o'quvchilar ko'z o'ngida munosib ko'rinishi kerak. O'quvchilarni mahorat bilan qiziqtirishi va ma'lum bir fanga qiziqish uyg'ota bilishi kerak.

Janubiy Afrika Respublikasidagi universitetga kiraverishda shunday so'zlar yozib qo'yilgan: „Har qanday millatni yo'q qilish uchun kuchli atom bombasi yoki uzoq radiusga ta'sir qiladigan raketalariga hojat yo'q. Faqat ta'lim sifati pasaytirilsa va imtihonlarda talabalarga aldash uchun imkoniyat yaratilsa bas.

„Bunday vrachlar qo'liga tushgan bemorlar o'la boshlaydi;

Bunday quruvchilar qurgan binolari qulaydi;

Bunday iqtisodchilar va hisobchilar qo'lidagi pullar izsiz yo'qoladi;

Bunday diniy ulamolar tufayli insonlar ma'nan o'la boshlaydi;

Bunday yuristlar va sudyalari qo'lida adolat yo'qlik sari yuz tutadi;

Qonun chiqaruvchilar qo'lida boshqaruv yo'q bo'ladi“. Ta'limning barbod bo'lishi—millatning kasodga uchrashidir“.

Albatta, bu jumlar katta ahamiyatga ega. Kelajakda mana shunday millat qulashi bo'lmasligi uchun ta'limga katta etibor qaratish kerak. Har qanday yetuk mutaxassis kasb egalariga eng avvalo o'qituvchilar ta'lim va tarbiya berishadi. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi o'z kasbini sevib va o'qituvchi, muallim degan sharafga loyiq bo'lishi kerakdir.

Yanada, o'qituvchilik kasbi haqida buyuk pedagog olimlar ko'plab fikr-mulohazalarni bayon qilishgan. Y.A.Komenskiy o'qituvchining asosiy maqsadi haqida shunday degan: „O'qituvchi—o'quvchilar tomonidan o'rnak bo'lishga chorlovchi shaxs, yuksak axloqi, odamlarga muxabbati, bilimi, mehnatsevarlik va boshqa fazilatlarini namoyon qila oladigan, insonparvarlik asosida tarbiyaviy ishlarni olib boradigan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish“. Allomaning ta'kidlaganidek bu fazilatlar bejiz aytilmagan, o'qituvchidan o'z ustida doimiy ishlashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda men o'z kasbimning yetuk mutaxassisi bo'lishim uchun hozirdan astoydil harakat qilaman. Zero jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, tarbiyachi va muallimlar zimmasiga eng muhim vazifa bu—jamiyat kelajagi hisoblanadigan yoshlarni tarbiyalash, ta'lim berish vazifasi yuklatilgan va o'qituvchi bu vazifani yuqori darajada bajarishi kerak. O'qituvchi bo'lish qiyin, lekin o'qituvchisiz yashash mumkin emas zero o'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog'liq. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov: „Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir“ deya ta'kidlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov „Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati“.—T.: Sharq nashriyoti;

2. A.Xoliqov „Pedagogik mahorat“.– darslik. T.: 2011;
3. I.A.Karimov „Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch“–T.: 2008
4. www.ziyonet.uz

